

“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” ASARI TARKIBIDAGI FOLKLOR NAMUNALARINING O‘RGANILISHI

Abduxalilova Gulshanoy Yashar qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy
Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mahmud Koshg‘ariy qalamiga mansub “Devonu lug‘oti-t-turk” asari turkiy tilning naqadar boy ekanligini ko‘rsatib beruvchi manba hisoblanadi. Asarda turkiy so‘zlar izohini keltirishda xalq og‘zidan yozib olingan adabiy parchalar, maqol va boshqa folklor namunalari keltirilgan bo‘lib, ular XX asr boshlaridan beri dunyo turkologlari va folklorshunoslari uchun tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar. “Devonu lug‘oti-t-turk”, to‘rtlik, bayt, adabiy parcha, bibliografiya, marsiya, maqol.

XI asr yozma adabiyotining eng nodir asari bo‘lmish “Devonu lug‘oti-t-turk” asari keng jabhalarni qamrab olganligi, nafaqat o‘sha davr lug‘at boyligi miqyosini belgilovchi manba, balki davr muhiti, aholi turmush tarzi, til grammatikasi, xalqlar hayotining ajralmas qismi bo‘lgan folklor namunalarini yoritishi bilan o‘z qiymatini oshiradi. Bu haqda asar yuzasidan tadqiqot olib borgan ozarbayjon olimi Ramiz Askar shunday yozadi: “Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asari o‘rta turk davrining shoh asari, ming yil oldingi turk ensiklopediyasi, oynasidir. Mavzu jihatdan qahramonlik dostoni bo‘lgan mashhur “Dada Qo‘rqut”dan va “Manas”dan, didaktik “Qutadg‘u bilig”dan farqli o‘laroq “Devon” to‘laligicha turk tiliga, adabiyotiga, folkloriga, tarixiga, jo‘g‘rofiyasiga, madaniyati va etnografiyasiga oiddir”.¹

Ushbu nodir asar bir necha asrlardan buyon turkolog olimlar, adabiyotshunoslari, tilshunoslari va folklorshunoslari uchun tadqiqot manbai bo‘lib kelmoqda. M.F.Ko‘prulu “Devonu lug‘oti-t-turk”(keyingi o‘rinlarda “Devon” tarzida beriladi)ning turkologiya uchun muhtasham ahamiyatini quyidagi so‘zlar bilan ifoda etadi: “Qashqarlik Mahmudning asari shunchaki bir lug‘at emas, turk lahjalari va ularning fonetik xususiyatlari, morfologiyasi... haqida uzoq muddat tadqiq qilinadigan bir ma‘lumot manbayidir”.² Shu sababdan ham ushbu asar nafaqat o‘zbek olimlari, balki butun turkiy xalqlar olimlari, turkologiyani, turkiy xalqlar adabiyoti va folklorini tadqiq qilgan olimlar tomonidan mukammal tadqiq qilingan va tadqiq qilib kelinmoqda. Ozarbayjon olimi Ramiz Askar tomonidan tuzilgan “Devon”ning bibliografiyasi

¹ Ramiz Əskər. Mahmud Kaşğarinin “Divanü lüğat-it-türk” əsəri üzrə bibliografik və qrammatik göstərici. Bakı,2008. S.8,9.

² M.F.Köprülü. Türk Dili ve Edebiyatı Hakkında Araştırmalar. İstanbul,1934. S.42.

ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bibliografiyada "Devon" asosida tayyorlangan jami 1301 ta ilmiy ishlar: monografiya, dissertatsiya, avtoreferatlar, jurnal va ilmiy maqolalar nomi tilga olingan. Ular jami 18 tilda ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, bu nodir yozma yodgorlik dunyo miqyosida qanchalik qiymatga ega ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lish mumkin.

Mahmud Koshg'ariyning asarini ilmiy asosda tadqiq etish, asosan, XX asr boshlariga to'g'ri keladi. "Devon" haqida V.Radlov, G.Bergshtresser, F.Xommel, V.V. Bartold, S.E. Malov, I.I.Umnyakov, A.Bombachi, R.Denkoff, J.Kelli, A.N.Kononov, I.V.Stebleva, T.A. Borovkova, R.Ermers, Y.A.Zuev, I.Xavenshild kabi G'arbiy Yevropa va rus olimlarining ishlari ma'lum deb yozadi "Devon"ning yangi nashrini tayyorlagan adabiyotshunos olimlar A.Rustamov va H.Boltaboyev.³

Aynan yuqorida tilga olingan "Devon"ning yangi nashrida yozilgan so'zboshida "Devon"da umumiy hajmi 764 misra bo'lgan 289 to'rtlik va ikkilik (bayt) she'riy namunalar berilgan⁴ligi ko'rsatilgan. I.V. Kormushin hisobiga ko'ra esa 163 to'rtlik va 57 bayt (ikkilik) adabiy namuna sifatida keltirilgan.⁵ Bu faktning o'ziyoq "Devon"ga qadar turkiy she'riy shakllar va muqaddimada tilga olingan janrlar shakllanganini ko'rsatadi. "Bu she'riy parchalar ma'lum bir so'zning izohi tarzida keltirilgan bo'lsa-da, bu parchalar qadimgi turkiy adabiyotda, xususan, lirik va epik janrning rivoj topganidan dalolat beradi", - deb yozadi folklorshunos olim Nasimxon Rahmonov.⁶ Olimning ta'kidlashicha, so'zlarni izohlashda namuna sifatida keltirilgan adabiy parchalar xalq og'zidan yozib olingan bo'lib ayrim o'rinlarda ular ma'lum ijodkorga tegishlilik ko'rsatiladi: Koshg'ariy keltirgan mazkur she'riy parchalar turli mavzuda - mehnat, yorning ta'rif-tavsifi, turk bahodirlarining qahramonliklari, ezgulikka da'vat, vatanparvarlik va h. She'riy parchalarni Mahmud Koshg'ariy xalq og'zidan yozib olgan. Ayni paytda "Devonu lug'ot-turk"dagi ba'zi she'riy parchalar ma'lum bir ijodkor qalamiga mansub ekanligini Koshg'ariyning ishorasidan bilish mumkin. Koshg'ariy ko'p o'rinlarda "shoir aytadi" iborasini ishlatadi va bir to'rtlik keltiradi.⁷

"Devon"dagi she'riy parchalar ko'p turkologlar o'rtasida munozaraga sabab bo'lgan. Ko'pchilik yevropalik turkologlar "Devon"da keltirilgan to'rtliklarni dastlab turkiy xalqlarning qadimgi folkloriga mansub deb qaraganlar. K.Brokkelman fikricha, "Devon"dagi ikkilik va to'rtliklar unutilib ketgan ma'lum bir shoirlar ijodiga ham mansub bo'lishi mumkin.⁸ "Devon"da uchrovchi ushbu to'rtlik va ikkiliklarni atroflicha va mukammal tadqiqi Fitrat

³ Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni, nashrga tayyorlovchi Alibek Rustamov, Hamidulla Boltaboyev. Toshkent, 2016. S.10.

⁴ Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni, nashrga tayyorlovchi Alibek Rustamov, Hamidulla Boltaboyev. Toshkent, 2016. S.14.

⁵ Махмуд ал-Кāшгарī. Дīвāн лугāt ат-турк. В 3-х томах. Том 1/ Предисловие И.В.Кормушина. Москва Восточная литература. 2010.С.22.

⁶ Nasimxon Rahmonov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent,2014. S.131.

⁷ Nasimxon Rahmonov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent,2014. S.131.

⁸ Brokelmann. C. Mahmud al-Kasghari uber lie Sprachen un die Stomme der Turlen in XI Jahrh (Karosi Csama – Archivum.). – 1921.

qalamiga mansubdir. A. Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” birinchi qismida 14 turkumda shartli sarlavhalar bilan bir qancha to‘rtliklar berilgan. Ularning izoh va tarjimalaridan tashqari olim ikki marsiyani mazmun va mavzu jihatdan farqlaydi. Fuod Ko‘prulu “Devon”ga kirgan parchalarni adabiy na’v jihatdan “Marsiya, doston, ov qo‘shiq-lari, ishq va sharob she’rlari hamda hikmatlar”dan iborat deb ko‘rsatgan edi. Shu bilan birga olim “Turk adabiyotining manshai” maqolasida Alp Erto‘nga mavzusidagi to‘rtliklarni o‘zaro mazmun jihatdan bog‘lab, ularni to‘rt marsiyaga ajratgan ham edi.⁹ Fitrat bu qarashlarni isloh etib, avvalo, Alp Erto‘nga nomi bilan bog‘liq manzumalar to‘rt marsiya emas, balki ikki marsiyani tashkil etishini isbotladi. Qolgan ikki marsiya haqida esa “boshqa unvonlar berish kerak” degan fikrga keldi.¹⁰ Olim marsiyalar haqidagi fikrini davom ettirib, Ko‘pruluzoda qarashlariga zid fikrni ilgari suradi: “...So‘ngra “Alp Erto‘nga” marsiyasini prof. Ko‘pruluzoda o‘n ikki parcha deb ko‘rsatadilar. Meningcha o‘n parchadir. “Devoni lug‘at”ning ikkinchi jild, 105-betdagi bir parchani esa “Erto‘nga” marsiyasiga qo‘shushg‘a vazn, qofiya, mavzui musoada qilmaydir. Birinchi jildning 94-betidagi bilan, uchinchi jildning 31-betidagi parchalar boshqa-boshqa emas, ikkalasi birdir.”¹¹

“Devon”da turkiy so‘zlarning izohini ochib berishda adabiy parchalar bilan bir qatorda maqollardan ham o‘rinli foydalanilgan. Asarning yangi nashri uchun yozilgan so‘zboshida “Devon”da 318 ta maqol va hikmatli so‘zlar keltirilgan bo‘lib, ulardan 26 tasi ikki marta, 6 tasi uch marta tilga olingan. Bu maqollar turkiy xalqlarning falsafasi, turmush tajribasi, tabiat hodisalariga munosabatini anglatadi¹² deya izohlangan. “Devon” tarkibida uchrovchi maqollar yuzasidan O‘zbekistonda K.Bakirov, O‘.Lapasov, Sh.Mahmadiyev va boshqalar, xorijda, A.Alniyazov, G.Guzuchieva, X.Abdullayev, A.Alnichov, J.Alashbayeva, A.O‘zturk, R.Zaynalov kabilar o‘z ishlarida folklore va lingvistik tomondan o‘rgananganlar.¹³

Asardagi maqollarni keng aspektda o‘rganish asosan XX asrda turk olimlari tadqiqotlarida boshlangan. Shunday tadqiqotlarning birinchisi turk olimi Fuod Ko‘prulu tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, 1920-yilda Karl Brokkelman “Devon”dagi maqollarni kitob holida nashr qildiradi.¹⁴ 1944-yilda Ferit Birtek “Devon”dagi barcha maqollarni to‘plab ularni o‘z mavzulariga ko‘ra tasniflash orqali tekshiradi.¹⁵ Turkiyada Ahat Ustuner “Qoraxoniylar Turk va sobiq Kichik Osiyo Turk matnlarida maqollar, iboralar va qisqa hikoyalarni o‘rganish” nomli

⁹ Köprülü M.F. Türk Dili ve edebiyatı hakkında araştırmalar. İstanbul, 1934. S.34.

¹⁰ Abdurauf Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. Toshkent,2008. S.12

¹¹ Abdurauf Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. Toshkent,2008. S.12

¹² Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni, nashrga tayyorlovchi Alibek Rustamov, Hamidulla Boltaboyev. Toshkent, 2016. S.16.

¹³ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘oti-t-turk. Qosimjon Sodiqov nashri. Toshkent, 2017. S.28

¹⁴ Elbek Ro‘ziyev. “Devonu lug‘ti-t-turk” asaridagi maqollarni lingvistik tadqiqiga doir mulohazalar. Journal of Innovation,Creativity and Art. Vol. 1, No. 1, 2022.

¹⁵ Birtek Ferit. En eski turk savlari. Ankara,1944.

ilmiy dissertatsiyasini himoya qiladi. Yana bir turk olimi Korkmaz Hatice o‘z ilmiy ishida “Devon”dagi maqollar va hozirgi turk tilidagi maqollarni qiyosan o‘rgangan.¹⁶

Mahmud Koshg‘ariy yozgan ushbu nodir yodgorlik o‘zining lug‘at tarkibi, keng qamrovi bilan bir qatorda, folklor namunalarining bir necha turini o‘zida mujassamlashtirgan boy manbadir. Bugungi kunga qadar asar tarkibida qo‘llangan xalq og‘zaki ijodi namunalari, adabiy parchalarning o‘rganib kelinayotgani, tadqiqot obyekti sifatida olinayotgani buni isbotlaydi.

¹⁶ Korkmaz Hatice. Divanū lugati’t-tūrkteki atasözlerinin anlambilimsel açıdan incelenmesi. Ondokuzmayis universitesi, sosyal bilimler emstitüsü, basilmamış yüksek lisans tezi. Samsun,2007